Margarita Ivanovna Filanovichning Toshkent shahri merosini o’rganishga qo’shgan hissasi

Toshkent shahrining qulay tabiati tufayli qadimgi tosh davridan odamlar tomonidan o’zlashtirilib kelingan. Bu hududda miloddan oldingi 3-2 ming yilliklarda ko’chmanchi chorvadorlar yashagan, miloddan oldingi 2-ming yillikning 2-yarmidan o’troq dehqonlarning qishloqlari paydo bo’lgan. Miloddan oldingi 3 – 2-asrdan boshlab esa shaharchilikka asos solina boshlagan. Keyingi davrlarda qishloq va shaharlarning, alohida qo’rg’onlarining soni ko’payib borgan. Hududda dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik taraqqiy etib, keng savdo-sotiq ishlari amalga oshirilgan, o’ziga xos taraqqiyot bosqichlari ro’y bergan. O’zbekiston Fanlar akademiyasi Arxeologiya institutining Toshkent arxeologiya ekspeditsiyasi tomonidan olib borilgan tadqiqot ishlari Toshkent shahrining bu kabi tarixi tiklash borasidagi ishlpri alohida ajralib turadi. Toshkent shahrida arxeologik qazishmalar va kuzatuvlar olib borgan bu ekspeditsiya 1966-yil Toshkentda bo’lib o’tgan kuchli zilziladan so’ng, shaharda boshlangan jadal qurilishlar paytida, ya’ni, 1967-yilda arxeolog Ya.G’.G’ulomov tashabbusi bilan “Toshkent arxeologiya otryadi” nomi bilan tuzilgan va 1978-yildan “Toshkent arxeologiya otryad” nomi bilan doimiy faoliyat yurituvchi ekspeditsiyaga aylanib. Bu guruhga tarix fanlari nomzodlari, olima arxeologlar V.A.Bulatova (1967 – 1968 va 1971 – 1974-yillar) va M. T. Aminjonova (1969 – 1970-yillar)lardan so’ng esa Margarita Ivanovna Filanovich (1974-yildan) rahbarlik qilganlar. Ekspeditsiya guruhining turli yillardagi keng ko’lamli tadqiqot ishlarida hozirda nafaqat O’zbekistonda qolaversa, chet ellarda ham nomlari mashhur bo’lgan taniqli arxeologlar ishtirok etishgan. Bu ekspeditsiya tuzilishi bilan a’zo bo’lib kirgan va keyin rahbarlik qilib kelgan, 85 yoshlik yubeliyining salmoqli qismini Toshkent shahrining arxeologiyasi va tarixini o’rganishga bag’ishlagan matonatli, tirishqoq va fidoyi olima – Margarita Ivanovna Filanovichning ham xizmatlari kattadir. U shahardagi barcha arxeologik yodgorliklarda o’tkazilgan tadqiqotlarda ishtirok etgan. Shoshtepa, Ko’gaittepa, Mingo’rik, Yuunusobod Oqtepasi, Chilonzor Oqtepasi, Xonobod, Binkatda olib borilgan tadqiqotlarda katta natijalar qo’lga kiritilgan. Eng muhimi, tadqiqotlarda erishilgan yutuqlarni M.I.Filanovich mahorat bilan bir tizimga sola bilgan. U shahardagi yodgorliklarni stratigrafik o’rganish orqali fanning ayrim munozarali masalalariga aniqlik kiritgan. Xususan, Burganli va Qovunchi madaniyatlari davri hamda alohida boschiqlari belgilangan, Chochning qadimgi va o’rta asrlardagi poytaxtlari, bu mintaqaning tarixiy topografiyasi, iqtisodiyoti va aholisining g’oyaviy dunyoqarashlarini oydinlashtirgan.



M. I. Filanovich qazishmalardan olingan natijalarga tayanib Toshkent shahri miloddan oldingi 13 – 12-asrlardan to milodiy 16-asrgacha bo'lgan taraqqiyot bosqichini ajratib bergan. Xususan, miloddan oldingi 13-asrlarda o'rtoq dehqonchilik (Burganli madaniyati) bilan shug'ullangan aholi vakillari, so'ngra, miloddan oldingi 6 – 3-asrlarda ko'chmanchi chorvadorlar tomonidan egallanganligi, keyin esa iqlim o'zgarib Sirdaryoning quyi oqimlari suvsizlanishi natijasida u joydagi aholining miloddan oldingi 3-asr oxiri – 2-asrlarda Toshkent(Choch)ga kelib o'rnashishi va mahobatli imoratlar, xususan xoch shaklidagi imoratlarni qurilganligi, keyin miloddan oldingi 1-asr – milodiy 4-3-asrlargacha bunday imoratlarga yangi devorlar qo'shib qurilib, ularning (olov bilan bog'liq) yirik diniy ibodat marosimlar o'tkaziladigan makonga aylanganligi, 5 – 8-asrlarda yangi etnomadaniy qorishuv jarayonlari bo'lganligi, 8-asr boshidagi arab askarlarining talofiti, 9 – 13-asr boshlarida somoniylar, qaraxoniylar, xorazmiylar sulolasi hukumronligi davriga xos taraqqiyot bosqichlari kechganligi, 13-asrning ikkinchi o'n yilligidan Chingizxondan qo'shinidan ko'rilgan vayronagarchilik va 14 – 15-asrlardagi Amir Temur va temuriylar boshqaruvi paytida hayot qayta jonlanganligi kabilar asoslab berilgan. Uning ishtiroki va rahbarligidagi tadqiqotlar evaziga Toshkent shahrining 2200 yillik yoshini belgilangan va 2009-yilda yubileyini keng nishonlangan.

M.I.Filanovich Toshkent shahrida olib borilgan tadqiqotlarda qo'lga kiritilgan natijalarni respublika va xorijiy davlatlardagi konferentsiyalarda aprobatsiyadan o'tkazib keng jamoatchilikka yetkazib kelmoqda. Bu kabi ma'ruzalar va tadqiqotlar ko'plab ilmiy maqola va monagrafiya sifatida chop ettirilgan, TV, radio, turli ijtimoiy tarmoqlar va gazetalarda targ'ib qilingan. Ayniqsa, ular ichida olimaning ikki: "Toshkent. Shahar va shahar madaniyatining kelib chiqishi hamda rivojlanishi (Ташкент. Зарождение и развитие города и городской культуры)" hamda "Arxeologik manbalarda Toshkentning qadimgi va o'rta asrlar tarixi (Древняя средневековая история Ташкента в археологических источниках)" nomli asarlari keng jamoada katta qiziqish va taassurot qoldirmoqda. U Toshkentdagi yodgorliklarni saqlab qolish bo'yicha ham jonkuyarlik qilib kelmoqda, kezi kelganda "qattiq-qattiq" gaplar gapirmoqda.

Xullas, M.I.Filanovich Toshkent shahrida merosini o’rganish, targ’ib qilish va saqlab qolishda o’rnak olsa arzugilik ishlarni amalga oshirmoqda. Uning bu ishlari kelajak avlodda Toshkentning o’ziga xos o’rni borligi tushunishga, shahar tarixi bilan faxrlanish tuyg’usining shakllanishiga xizmat qiladi. Olima M.I.Filanovich bu ishlari uchun katta minnatdorlik bildiramiz va uzoq umr tilaymiz.

D. R. Normurodov,

O’zR FA Milliy arxeologiya markazi ilmiy xodimi, tarix fanlari bo’yicha falsafa doktori, katta ilmiy xodim.